

TOSHKENT VILOYATI HUDUDIDA YASHOVCHI UYG'URLARNING MILLIY TAOMLARI NOMLANISHIDA O'ZBEK TILINING TA'SIRI

Yunusova M.M.

folklorshunoslik va dialektologiya fakulteti

1-bosqich magistranti

ToshDO'TAU

Annotatsiya: O'zbekiston hududida yashovchi uyg'urlarning shevalariga o'zbek tilining sezilarli darajada ta'siri mavjud. Ushbu ta'sir lingvistik jihatdan leksik, fonetik, morfologik, sintaktik va grammatik o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston uyg'urlari uzoq yillar davomida o'zbek tilida ta'lim olishlari, kundalik muloqot va ijtimoiy hayotda o'zbek tilidan foydalanishlari natijasida uyg'ur tiliga xos ayrim xususiyatlar yo'qolib, o'zbek tiliga xos shakllar paydo bo'lgan. Ushbu maqolada Toshkent viloyati hududida yashovchi uyg'urlar milliy taomlarining uyg'urcha nomlanishida o'zbek tilining ta'sir ko'lamini haqida fikr bildiriladi. Maqola orqali uyg'ur milliy taomlarining nomlanishi Toshkent viloyati areali chegarasida qiyosiy tahlil olib boriladi.

Kalit so'zlar: areal, uyg'ur, fonetik, morfologik ta'sir, kommunikativ vazifa, jusay, say, atkanchay, baldirgan, gultavaq, xoshan, manta, go'shnan va h.k.

Abstract: This article discusses the influence of the Uzbek language on the Uyghur names of national dishes of Uyghurs living in the Tashkent region. In addition to Uzbek culture and Uzbek values, the influence of language is also clearly felt on the Uyghur dialects living in Uzbekistan. The article conducts a comparative analysis of the naming of Uyghur national dishes within the Tashkent region.

Keywords: area, Uyghur, thematic groups, communicative task, jusay, say, atkanchay, baldirgan, gultavaq, hoshan, manta, goshnan, etc.

Asrlar davomida Markaziy Osiyo til, madaniyat va millatlar bir-biriga ta'sir ko'rsatgan mintaqaga bo'lib kelgan. Ushbu mintaqaning qadimiy xalqlaridan biri bo'lgan uyg'urlar ham o'zining turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan uyg'ur tilida so'zlashadi. O'zbekistonda yashovchi uyg'urlar, asosan, Farg'ona vodiysi, Toshkent va boshqa hududlarda joylashgan. Tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar uyg'ur lahjalarida o'zbek tilining ta'sirini oshirdi. Uyg'ur tili Turkiy tillar oilasining sharqiy guruhiga kiradi va asosan Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekistondagi uyg'urlar tomonidan ishlatiladi. Uyg'ur tilining asosiy lahjalari quyidagilar:

1) Markaziy uyg'ur lahjasi, 2) Janubiy uyg'ur lahjasi, 3) Sharqiy uyg'ur lahjasi¹.

O'zbekistonda yashovchi uyg'urlar, asosan, markaziy uyg'ur lahjasiga yaqin tilda so'zlashadi, ammo o'zbek tilining ta'siri bu lahjada sezilarli darajada aks etadi. Bu ta'sir nafaqat lug'atda, balki sintaksis, morfologiya va fonetik jihatlarida ham namoyon bo'ladi. Uyg'ur va o'zbek tillarining tarixiy ildizlari qadimgi turkiy tillardan kelib

¹ Bartold V. V. Turkiy xalqlar tarixi. Toshkent: Fan, 1964.

chiqqan. O'rta asrlarda uyg'ur tili Uyg'ur xoqonligi, Qoraxoniylar davlati va keyinchalik Mo'g'ullar imperiyasining rivojlanishidan o'sib chiqdi. O'zbek tili esa, Temuriylar davrida o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirib, mintaqadagi boshqa tillar bilan birga rivojlandi. Asrlar davomida Markaziy Osiyoda uyg'urlar va o'zbeklar birgalikda turli iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarni o'rnatdilar. Ayniqsa, XX asr boshlarida ko'plab uyg'urlar Xitoy va boshqa hududlardan O'zbekistonga ko'chib kelganlar, bu esa uyg'ur lshevalarida o'zbek tilining ta'sirini yanada oshirgan, chunki uyg'urlar doimiy ravishda o'zbek tilida muloqot qilishga majbur bo'lishgan².

Qayd etish joizki, uyg'ur shevalari bir necha marta tadqiqot obyektiga aylangan, O.Mamatqulov. "O'zbekiston uyg'urlari va ularning madaniy merosi", T.Muhtorov "Turkiy tillarda leksik almashuv va uning natijalari", K.Saidov "O'zbekiston uyg'urlarining lingvistik xususiyatlari" kabi tadqiqotlar shular jumlasidandir. Lekin ularning ma'lum sohalarda o'zbek tili bilan umumiy qatlamda aks etgan, bir-biriga qorishib ketgan leksik birliklari haqida izlanishlar sanoqlidir. Shunday qilib, ayrim tadqiqotlarda uyg'ur shevalarining o'zbek tili bilan qiyosan alohida tematik guruhlar madaniyat, qarindoshlik munosabatlarida tadqiq qilingan. Ushbu maqola orqali Toshkent viloyati areal hududlarida uyg'ur tiliga o'zbek tilining ta'siri haqida tahlillar bilan bo'lishib boriladi.

Uzoq muddatli aloqalar natijasida O'zbekiston uyg'ur shevalariga ko'plab o'zbek lug'aviy elementlari kirib kelgan. Ba'zi uyg'ur so'zlari o'z o'zbekcha muqobillari bilan almashtirilgan yoki birgalikda ishlatiladi³. Misollar:

- Maktab – Uyg'ur tilida **məktəp** shakli mavjud bo'lsa-da, ko'proq **maktab** ishlatiladi.
- Bozor – Uyg'urcha **bazar** so'zi o'rniga **bozor** shakli ko'proq qo'llanadi.
- Davlat – Uyg'urcha **devlät** so'zi o'rniga o'zbekcha **davlat** ishlatiladi.

Uy xo'jaligi, savdo va qishloq xo'jaligiga oid atamalarda o'zbekcha so'zlar ko'proq uchraydi. O'zbek tilining fonetik tuzilmasi O'zbekiston uyg'ur lahjalariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ko'plab uyg'urcha so'zlar o'zbek tili fonetik qoidalariga mos ravishda aytilmoqda. Fonetik o'zgarishlar:

- Unli tovushlarning "a"dan "o"ga o'zgarishi – Masalan, uyg'urcha **mən** ("men") so'zi o'zbekcha tarzda "men" deb talaffuz qilinadi.
- Urg'u tartibi: O'zbek tilida aksar so'zlarda urg'u oxiriga qo'yiladi, bu uyg'ur tilida odatiy bo'lmasa-da, O'zbekistonda uyg'urlar ba'zi so'zlarda buni qilishi mumkin⁴.

Bunday fonetik ta'sir kundalik muloqotda yaqqol ko'zga tashlanadi va bu ta'sir yosh uyg'urlarda yanada kuchliroq seziladi, chunki ular o'zbek tilida ta'lim oladi va kundalik muloqotda ko'proq foydalanadi. Ayniqsa, inson hayotining birlamchi ehtiyoji bo'lmish-

² Mamatqulov O. O'zbekiston uyg'urlari va ularning madaniy merosi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2019, www.uzuni.uz

³ Muhtorov T. Turkiy tillarda leksik almashuv va uning natijalari. Toshkent, 2021

⁴ Karimov M. O'zbek va uyg'ur tillarining morfologik xususiyatlari. Toshkent, 1993.

taomlanish, milliy taomlar bilan bog‘liq leksemalar fonetikasida sof uyg‘ur tilidan ko‘ra o‘zbek tiliga uyg‘un shaklda talaffuz qilinishi yaqqol bilinadi. Masalan, “g‘ush nan” – sof uyg‘urcha fonetikada shunday talaffuz qilinsa, Toshkent viloyati hududida yashovchi uyg‘urlar bu so‘zni “go‘sh t non” deb talaffuz qilishadi⁵. Tadqiqot jarayonida suhbatga jalb etilgan Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani, “Uyg‘ur” mahallasida istiqomat qiluvchi, asli millati uyg‘ur, lekin o‘zbek millatiga mansub kishiga turmushga chiqqan 63 yoshli Shamsibonu O‘rinboyeva bu taomga shunday izoh beradi:”Bu non qozonda pishadigan, ichiga go‘sh solib tayyorlanadigan non turi hisoblanadi. Uyg‘ur xalqlarida nonning 40dan ortiq turlari mavjud bo‘lib, ularning katta hajmdagisi- “Chong nan”, kichik shakldagisi – “kichik nan” deb ataladi”. Bu non turlari ichida uyg‘ur xalqlari uchun eng sevimlisi- lag‘mon shaklida uzun-uzun tayyorlanadigan non turi-“sangza” deb sof uyg‘ur tilida aytilsa, o‘zbek tili ta’siri tufayli Toshkent viloyatida istiqomat qiladigan uyg‘urlar bu so‘zni “sag‘za” deb talaffuz qilishadi. Uyg‘urlarning qadimda yashash hududidan Buyuk Ipak Yo‘li o‘tganligi bois, choy bu xalqda alohida qadrlangan. Ayniqsa, “atkanchay” deb nomlanuvchi, sut bilan qora choyni aralashtirib tayyorlanadigan choy turi uyg‘ur xalqlarining milliy choyi hisoblanadi. Toshkent viloyatida yashovchi uyg‘urlar esa bu so‘zni “atkanchoy “ deb, o‘zbek tilidagidek ”a” unlisini “o” ga aylantirib talaffuz qilishadi. Taom tayyorlashning birinchi bosqichida- barcha ovqatlarda zirvak tayyorlansa, bu jarayonni uyg‘urlar “say “ deb atashadi. “G‘ushsay”- asosan, go‘shdan tayyorlanadigan, sabzavotlar qo‘shib dimlab qo‘yish orqali tez tayyor bo‘ladigan taom turi bo‘lib, bu taom o‘zbek xalqi orasida ham mashhur. Izlanishlar orqali shu ma’lum bo‘ldiki, Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani, “Uyg‘ur” mahallasida istiqomat qiluvchi o‘zbek xonadonlari vakillari ham lag‘mon, guruch va qaylali taomlar tayyorlash jarayonida zirvakni “say” deb atashadi.

Xamirli taomlar uyg‘ur va o‘zbek oshxonasida keng tarqalgan. Xamirli taomlar o‘rtasida o‘zaro ta’sirlar ko‘plab o‘zbekcha so‘zlar orqali ko‘rinadi.

Manti – so‘zini uyg‘urlar ham shunday talaffuz qilishadi va ayni ma’noda ishlatiladi . Uyg‘urlar ham ushbu taomni tayyorlaydilar, ammo ularning manti tayyorlanish usuli va ichida ishlatiladigan mahsulotlar o‘zgarishi mumkin.

Samsa – O‘zbekcha "somsa" so'zi uyg'ur tilida ham shunday ishlatiladi. Uyg‘ur somsalari ba’zan o‘zbeklar tomonidan tayyorlanadiganlardan farq qiladi, lekin umumiy nomi bir xil.

Qovun – "Qovun" so‘zi ham o‘zbek tilidan olingan bo‘lib, uyg‘ur tilida ham keng tarqalgan. O‘zbeklarning qovunli taomlari uyg‘ur oshxonasida ham ko‘rinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda yashovchi uyg‘urlar shevalarida taom nomlari bilan bog‘liq so‘zlarga o‘zbek tilining ta’siri ko‘p jihatdan mavjud. Uyg‘ur va o‘zbek oshxonalaridagi o‘zaro ta’sir, taom nomlari va tayyorlanish uslublari o‘rtasidagi bog‘lanishlar, bu ikki millatning madaniyati va urf-odatlarini o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlaydi. Ushbu ta’sir nafaqat leksik jihatdan, balki

⁵ Rahimov D. Culinary and Linguistic Interactions of Uyghurs and Uzbeks. Farg‘ona, 2021, 15-20

sintaktik va morfologik o'zgarishlar bilan ham ko'rinadi. O'zbekistonda yashovchi uyg'ur aholisining shunchaki madaniyati va urf-odatlarini ko'rsatibgina qolmasdan, o'zaro aloqalar, balki ikki xalqqa xos boylik va rang-baranglik, do'stlik va hamkorlikni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bartold V. V. Turkiy xalqlar tarixi. Toshkent: Fan, 1964.
2. Mamatqulov O. O'zbekiston uyg'urlari va ularning madaniy merosi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2019, www.uzuni.uz
3. Muhtorov T. Turkiy tillarda leksik almashuv va uning natijalari. Toshkent, 2021
4. Karimov M. O'zbek va uyg'ur tillarining morfologik xususiyatlari. Toshkent, 1993.
5. Rahimov D. Culinary and Linguistic Interactions of Uyghurs and Uzbeks. Farg'ona, 2021, 15-20